



## „ALPOMISH“

*O‘zbek xalq dostoni*

**Q**adimda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan kishi yashab o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il qoldi. Alpinbiydan ham ikki farzand: Boybo‘ri va Boysari dunyoga keldi. Ikkovi katta bo‘ldi. Boysari katta boy bo‘lib ketdi, Boybo‘ri esa shohlik amalini qildi.

Kunlar o‘tib, Qo‘ng‘irot elida bir to‘y bo‘ldi. To‘yga barcha elatlardan kelgan odamlar qatori Boybo‘ri bilan Boysari ham keldi. Lekin bu ikki eldorni hech kim izzat-ikrom bilan otini ushlamadi, ko‘nglini xushlamadi. Biylar: „Bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi“, — deb otlarini o‘zlari bog‘lab ma‘rakaga kelib o‘tira berdi.

Ma‘rakada ketma-ket noqulayliklarga duchor bo‘lgan biylar elning kattalariga qarata: „Bizdan nima xato o‘tdi, nega behurmat qildinglar?“ — deb so‘radi.

Shunda bir chapaniroq boyvachchasi aytdi: „Ey, Boybo‘ri bilan Boysari! O‘g‘illining o‘g‘lidan, qizlining qizidan qaytadi, senlarning nimangdan qaytadi?!“ — deb ularning farzandsizliklariga shama qildi.

Boybo‘ri bilan Boysari bu gapni eshitib, to‘yga sakson tilla tashlab, otlariga minib uylariga ketishdi.

## HAKIMBEKNING TUG'ILISHI

**B**oybo'ri ukasi Boysariga qarata:

„Shu yerdan Shohimardon pining ravzasi uch kunlik yo'l kelar, borsak, ko'p qatori chin ko'ngildan farzand tilasak, Yaratganning guvohligida farzandli bo'larmiz, u-bu odamga javob qilarmiz“, — dedi.

Ular Shohimardonga borib, qirq kun tunadilar. Yaratgandan farzand so'radilar. Qirq kun deganda pir ravzasidan ovoz keldi: „Ey, Boybo'ri, senga Xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi; Boysari, senga Xudoyim bir qiz berdi“, — dedi.

Shunday qilib, bu ikki eldornikida to'y boshlanib ketdi.

...Qirq kecha-yu qirq kunduz davom etgan to'y tarqay deb turganda, uzoqdan bir qalandar ko'rindi. Qarashsaki, Shohimardon pir ravzasida: „Men o'zim qalandar bo'lib borib, bolalaringning ismini qo'yib kelaman“, — degan ovoz eslariga tushdi.

Biylar o'rnidan turib, qalandarni ichkariga boshlab kirishdi. Farzandlarning uchovini ham pining etagiga solishdi. Shohimardon piri Boybo'ring o'g'liga Hakimbek deb ism berdi, o'ng kiftiga besh panjasini urdi va besh panjaning izi qoldi. Boybo'ri qizining otini Qaldirg'och, Boysari qizining otini Barchinoy qo'ydi.

Bolalar kundan-kun ulg'ayib, elga enib, uchovi ham maktabda o'qidi. O'qib yurib, yetti yoshga kirdi. Boybo'ri: „O'g'lim mulla bo'ldi, endi shohlik va sipohlik ilmini ham o'rgatayin“, — desa, Boysari ham akasiga taassub qilib: „Qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorva ilmini o'rgatayin“, — dedi.

Hakimbek yetti yoshga to'ldi, baland-pastni ko'rdi. Ana shu bola Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon



birinjdand bo‘lgan parli yoyni tortgandi, yoy o‘qi yashinday bo‘lib ketdi, Asqar tog‘ining cho‘qqilaridan birini yulib o‘tdi, ovozi olamni tutdi. „Yetti yashar bola shunday ishni qiladimi?“ — deb baxillarning boshi qotdi.


Shunda xaloyiq yig‘ildi. Ular: „Dunyodan bir kam to‘qson alp o‘tdi, boshlig‘i Rustami doston edi, oxiri bu — Hakimbek alp bo‘lsin“, — deyishdi. Hakimbek yetti yoshida to‘qson alplar qatori Alpomish bo‘lib songa kirdi.

**Zakot voqeasi.** Bir kuni Boybo‘ri kitob o‘qib o‘tirgan o‘g‘li Alpomishdan so‘radi: „Kishi nimadan baxil, nimadan saxiy bo‘ladi?“ „Vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo‘lsa, ko‘nglini xushlab jo‘natsa, bu saxiylik; agar joy bor bo‘la turib, joy yo‘q, deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy, agar bermasa, bul ham baxil“, — dedi o‘g‘li.

Bu so‘zni Hakimbekdan eshitgan otasi: „Yolg‘iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin“, — deb o‘z ko‘nglida: „Ukam menga zakot berishi kerak ekan“, — deb o‘yladi va Boysarinikiga o‘n to‘rt mahramini jo‘natdi. Ular borib: „O‘z ixtiyoringiz bilan bir uloqni zakotga berarkansiz, Boybo‘ri o‘z inisining baxil degan nom olishini istamas ekan“, — dedilar.

Boysari o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borib, Ko‘kqamish ko‘lida eliboylik qilib, mollarini semirtirib yurgan edi. O‘n to‘rt mahramning zakot to‘g‘risidagi gapi yoqmay bitta-bitta ushlab, yettovining qorniga qoziq qoqib o‘ldirdi. „Mana buni zakot deydi“, — deb otlariga ortib eliga yubordi.

Jon-tanidan zakot degan so‘z o‘tib ketgan Boysari: „Endi biz o‘z elimizda sig‘indi bo‘lib, o‘z akamga zakot



beradigan bo'lsak, bu elda bizning turgiligimiz qolmadi“, — deb o'n ming uyli Qo'ng'irot eliga murojaat qilib: „Akam bizni qizi bor, deb pisand qilmadi, bizga ulini minnat qildi“, — dedi. Oqsoqol Yartiboyning gapiga kirib, barcha dahmardalarga odam yuborib: „Qalmoq yurtiga — Kashal eliga ko'chamiz“, — dedi.

## **BOYSARINING EL-OMON BILAN KO'CHISHI**

**O'**n ming uyli qarindosh Boybo'ridan arazlab, Kashal eliga qarab, Boysun — Qo'ng'irot elini tashlab, Boysari bilan birga ko'chib jo'nadi. Olti oy deganda to'qson tog'dan mollarini o'tkazib, Qalmoq yurtiga yetdi. Toychixon mamlakatida, Chilbir cho'lida o'n besh kunlik yo'l chetida cho'zilgan ekinning maysasi bor edi. Ular ana shu maysalarga, ekinlarga mollarini ro'para qilib, yedirib boraverishdi.

Shunday qilib, Boysari boylari bilan Qalmoq elida yashayverdi. Bundan xabar topgan Qalmoq shohi besh yuz mirg'azab jallodni chog'lab, Chilbir cho'lga, Oyna ko'lga jo'natdi.

Bundan talvasaga tushgan Boysari shunday dedi:

*— Men berayin qator-qator norimni,  
Nor ustida yuklab kelgan zarimni.  
Mol yetmasa, beray Barchin qizimni,  
Hali ham bir ozod qilgin o'zimni,  
Dehqonlar ekinin o't deb yuribman,  
Bilmaslikdan gunohkor bo'p qolibman.*

Bu gap Qalmoqshohga yetdi, Qalmoqshoh turib aytdi: „Davlati ham, moli ham, Barchin qizi ham o'ziga nasib qilsin. Yetti yilgacha moli bezakot, betergov yura bersin“, — dedi.

Qalmoq elining Toychi viloyatida bir Surxayil degan kampir yashardi. Surxayil kampirning yetti o‘g‘li bor edi. Kattasini Ko‘kaldosh, undan kichigini Ko‘kaman, Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shquloq, kenjaytoyini Qorajon der edi.

Bu polvonlar — yoyandoz-mergan, har qaysisi to‘qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to‘qson shirbozning etini ta‘til qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan moyana olgan. Bu polvonlarning har biriga u yoqdan bu yoqdan ov qilib kelganida joyini solib, xizmatini o‘rinlatib turadigan podshohlikning qirqin qizi bor edi. Bu polvonlar Barchinoyday sarvinozdan hali bexabar edi.

Surxayil kampir Qorajon o‘g‘li uchun Barchinga sovchi bo‘lib bordi. Barchinni ko‘rib: „Bizning Qorajonga lozim qiz ekan“, — dedi. Shunda Barchinning enasi Barchinoyning yori borligini, yoshligidan unashtirilib qo‘yilganini va Alpomish alp xabarni eshitsa, barcha maqtangan o‘g‘illarining adabini berajagini Surxayil kampirga uqtirib aytdi.

Surxayil o‘g‘illari oldiga qaytib: „Yaxshi xabar keltirdim, o‘zbekning rasm-rusumini qilib boraveringlar“, — deganidan keyin polvonlarning barchasi ham o‘z oshiqligini aytib, Boysarining uyiga bordilar.

**Qalmoq alplarining Boysari qizini so‘rab borishi.** To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh: „Hoy, kelgan boy!“ — deb chaqirdi. Boysari „Labbay!“ — deb uyidan chiqdi. Ko‘kaldosh aytdi: „Sening bir qizing bor ekan, qani, birimizga berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz

olaylikmi, barimiz olaylikmi, javob ber“. Boysari nima deb javob qaytararni bilmay, rangi o‘chib, aqli qochib, „Ertaga choshgohgacha muhlat beringizlar, yo biringizga, yo baringizga beraylik“, — dedi.

Bu gapni eshitgan alplar bir-biriga qarab, hayron bo‘lib, rangi so‘lib, shunday deyishdi: „Bu to‘qsonimiz bir yerda yotsak, tong otguncha men olaman, men olaman, deb to‘balashib chiqmasak go‘rgaydi“.

Tortishuv davom etyapti, otlar tosh oralab ketyapti.

Biri: „O‘nta-o‘nta bo‘lib ketaylik“, — dedi.

Biri: „Beshta-beshta bo‘lib ketamiz“, — dedi.

Boshqalari: „Uchta-uchta bo‘lib ketamiz“, — deyishdi.

Oxiri: „Ikkita-ikkita bo‘lib tonggacha suhbatlashib yotamiz“, — degan ovozlari keldi.

Birovi chiqib: „Xo‘p bilasan ekan... Bitta-bitta bo‘lib ketamiz, ikkitadan bo‘lib ketsak, ora ochar qiladigan odam bo‘lmay, zo‘ri kamkuchrog‘ini bo‘g‘ib o‘ldirib qo‘yadi, bitta-bitta bo‘lib ketamiz“, — dedi.

Boysari muhlat yaqinlashganidan bezovtalandi. Qarindoshlarini yig‘di, lekin birovidan bir maslahat chiqmadi. Barchin: „Shu qarindoshlardan nima maslahat chiqar edi“, deb otasidan ruxsat so‘radi.

*Xafa bo‘lma, jonim otam, darvishim,  
Har na deb amr etsang, ani qilayin,  
Qayoqqa amr etsang, borib turayin,  
Bu alplarga o‘zim javob berayin.*



## **BARCHINOYNING ALPOMISHGA NOMASI**

**B** archinoy to tushgacha tengsalib yurgan qalmoqlarga shunday dedi:

— *Kelsa kelar Qo'ng'irotdan Alpomish,  
Kelmasa men taqdirimdan ko'rayin.*

Shunday deb, bir noma yozib: „Olti oychalik yo'ldan keldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin“, — deb o'nta yigitni otga o'tqizib, birovining qo'lga xatni tutqizib jo'natdi. Xat Boybo'ring qo'lga tegdi. Boybo'ri bu xabarni Alpomish bilmasin, deb tayinlab, choparlarni mehmon qilib, orqasiga qaytarib yubordi.

Alpomishning Qaldirg'och degan singlisi bor edi. U kanizlari bilan bir sandiqni ochib ko'rayotib chiroyli qilib o'ralgan xatga ko'zi tushdi. O'qisa, Barchin yangasidan, tezda xatni akasiga berib, xabar qildi:

— *Aka, senga aytadigan arzim bor,  
Talash bo'pti biyning qizi zulfakdor,  
Shu sababdan bunda xabar kelibdi,  
Aka, sendan bormoq lozim bo'libdi.*

Alpomish o'tlanmoqni niyat qildi. Qaldirg'ochoyimning maslahatini tinglab, otasining to'qson to'qay yilqisini boqqan cho'poni Qultoyning oldiga bordi. „Alpomish Qultoyning oldiga ot so'rab kelayotganmish“, — degan xabarni Boybo'ri eshitib, o'g'liga ot bermasligini tayinladi.

Avvaliga Qultoy ot bermadi, sen hali yoshsan, deb sinadi. Alpomishning ortidan yetib kelgan Qaldirg'ochoyim Qultoyni insofga chaqirdi, masalani oydin qildi.

Qultoy yotgan yerida bir „qur-hayt“ tortdi, to‘qson to‘qaydagi yilqi yig‘ilib jam bo‘ldi. Alpomish: „Saman sariga tush, olapocha to‘riga tush, shapaqning zo‘riga tush“, — deb qo‘riqni solgan edi, bir chipor otning bo‘yniga tushdi. „Ko‘p nozik uchradi“, — deb bu otni qo‘yib yubordi. Qultoyning qo‘rig‘i qayta-qayta shu chiporning bo‘yniga tushaverdi.

Qaldirg‘ochoyim: „Xafa bo‘lma, bu oting balki tulpor chiqar, buni mingan odam ko‘p yerlarni ko‘radi“, — deb Alpomishning ko‘nglini oldi. Qaldirg‘ochoyim otni „Boychibor, Boychibor“, — deb atrofga eshittirib akasiga egarlab berdi. Alpomish Alpinbiy bobosining o‘n to‘rt botmon birinjdand qilingan parli yoyini ham olib, hamla qilsa odamni cho‘ziltiradigan qilichini qiniga solib: „Qultoy bobom, Qaldirg‘och singlim, xo‘sh qolinglar“, — deb xayrlashdi.

**Alpomishning Qalmoq eliga jo‘nashi.** Alpomish yo‘l yurib ketdi. Cho‘lda bir qora ko‘rindi. Bu qora Barchindan kelgan o‘n chopar edi. Hakimbek bemalol ketayotgan choparlardan o‘zib ketdi. Choparlar ham: „Oq yuzli, obro‘li bo‘ldik“, — deb ta‘zim qilib qolishdi.

Alpomish Chilbir cho‘liga borayotib bir yerda to‘qson qo‘ra qo‘y yoyilib yurganini ko‘rdi. Bu qo‘ylar Boysarining qo‘yi ekanini Kayqubod cho‘pondan bildi. Kayqubod shu qo‘ylarni boqar edi. Alpomish shu yerlik cho‘ponlarning huzurida mehmon bo‘ldi. Ularning: „Boysariga yo‘liq-quday siyosati bor ekan“, — degan gumonlari to‘g‘ri chiqdi. Alpomish Kayqubodga Boychiborni topshirib, ko‘z-quloq bo‘lib turishni tayinladi.

Tong otib, kun qiziy boshlaganida Alpomish Qalmoq elida Chilbir cho‘lining Murodtepa degan tepasiga duch

kelib, ozroq irim chekib: „Shu tepaga ot solib, otimni bir sinay, yana bekorga ahmoq bo‘lmayin...“ dedi.

Tepalikning ustiga chiqib, Boysarining uyi tomonga qarab yotib edi, bir devsfat polvon tepaning ostiga keldi. Bu polvon Qorajon edi. Qorajon Alpomishga boqib so‘z qotdi: „Men sening maqsadingni bildim, qalmoqliklar seni bu yerlarda sog‘-omon qo‘ymaydi“, dedi.

Qorajon bu gapni aytib, Alpomish ko‘ngliga og‘ir olganini bilib: „Men seni birovga o‘xshatdim“, — dedi.

*Bildim qo‘ng‘irotlik zotingni,  
Malakdayin suratingni,  
Qovdon yegan otingni  
Men birovga mengzadim.*

Alpomish Qorajonga qarab: „Sen mening Alpomishligimni qayerdan bilasan?“ — deb so‘raganda, Qorajon: „Men ham qallig‘ingni talashib yotgan to‘qson alpning biri bo‘laman... Qirq chilton qavm-u qarindoshingni tushimda ko‘rsatib, sening bilan meni do‘st qildi“, — deb javob qaytardi.

„Do‘st bo‘lsang tepaning ustiga chiqqin, ko‘rishaylik“, — dedi Alpomish. Qorajon javob qaytarib: „Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga erishganim yo‘q“, — dedi.

**Alpomish va Qorajon ko‘rishuvi.** Alpomish tepadan otini yetaklab tushdi. Ikkovi quchoqlashib ko‘rishdi. Ko‘rishganda Qorajonning yetti qobirg‘asi sinib, ko‘zi tinib, yotib qoldi. Alpomish hayron bo‘ldi. Qorajon o‘zini o‘nglab olib: „Ey do‘stim, e‘tibor berma, o‘zi quyonchiq kasalim bor edi, — deb bahona qilib, bu — sening urishganingmi, ko‘rishganingmi?“, — deb so‘radi.

Bu Alpomishning ko‘rishgani edi. Qorajon aytdi: „Rostingni ayt, ko‘rishganing shu bo‘lsa, urishganing qanday ekan?!“ Ikkovi bo‘lak ko‘rishib, Qorajon Alpomishni o‘z chodiriga taklif etdi.

Alpomish Qorajonnikida mehmon bo‘ldi. Qorajonning enasi Surxayil kampir bu mehmondorchilikni ko‘rib, o‘g‘lini koyidi: „Sen ahmoq bo‘libsan“, — dedi. Qorajon: „Men Xudoni o‘rtaga qo‘yib do‘st tutindim“, — dedi.

Alpomish ziyofatni quyuq qilib o‘tirib, Qorajon do‘stiga gap tashladi: „Boysari bizning bu yerda o‘tirganimizni bilmas, sen bir xabar olib, sovchi bo‘lib kelsang“, — dedi. Qorajon esa Alpomishning iltimosi bilan Barchinning oldiga Boychiborni minib ketdi.

**Barchinoyning alplarga shartlari.** Barchinoy Chilbir cho‘lidan ot dupurini eshitdi. Vaqt o‘tmay Boychibor bilan Qorajonni ko‘rdi. Barchinoyning muhlati tugashiga ikki soat qolganida oyog‘ini uzangisiga tirab, Barchinoyni so‘rab, murtini bir-ikki burab, Qorajon yetib keldi.

Boysarining uyidagilar Qorajonni sinadi, bu qalmoqlik Alpomishning kelganini qayerdan biladi, kokil tashlab Boychibor ham turadi. Shunda Qorajon Barchinoyga qarab: „Bekorga muhlatni cho‘zib nima qilasan, sovchilikning sha‘ni shul, birato‘la bitirib ketaman“, — dedi.

Barchinoy: „Sening ishing to‘g‘rimi, iching to‘g‘rimi?“, deb ko‘nglidan o‘tkazib, Qorajonni yana bir sinadi: „Munchoq-munchoq ko‘zyoshlarim sen eding, Alpomishingni qo‘y“, — dedi. Qorajon bu xushomadga uchmadi. Qorajonning ishi ham, ichi ham to‘g‘riligini bilgandan so‘ng: „Mening to‘rtta shartimni bajarganga tegaman, ichingda polvoningni, mardingni ko‘raman“, — deb Barchinoy quyidagilarni aytdi:

— *Poyga qilib otini o‘zdirganga tegaman,  
Kurash qilib raqibini bezdirganga tegaman,  
Yoy tortishib, yoyi sinmaganga tegaman,  
Ming qadamdan tanga-pulni urganga tegaman.*

Ana endi maqsad oydin bo‘ldi. Qorajon Boychiborni minib qaytayotganida oldidan Ko‘kaldosh akasi chiqib qoldi. Ko‘kaldosh ham ukasidan bu shartlarni bildi. „O‘zbekning qizini faqat men olaman“, — deb ko‘kragiga urib qo‘ydi. Bu shartlardan boshqa polvonlar ham xabardor bo‘ldi.

Qalmoqshohga ham bir xat yetgan edi. Podshohdan uch ot keldi: biri olapocha to‘riq ot, biri shapaq ot, birov o‘n bir ming tangaga olingan saman ot. Jami to‘rt yuz to‘qson to‘qqiz ot, Boychibor bilan besh yuz.

Sinchilar shu besh yuzdan bo‘lagini, „Bekorga sarson bo‘lmasin“, — deb qaytarib yubordi.

Hamma poygachilar jamlandi. Boychiborda Alpomishning iltimosi bilan Qorajon chopadigan bo‘ldi. Sinchilarni jon-holiga qo‘ymagan chavandozlar Boychiborning zo‘rligini bilganlaridan so‘ng, ularning tinchi yo‘qolib, bu otni zo‘r degan sinchining ko‘zlarini o‘yib olishdi. Qorajonni poygada qatnashishdan aynitib: „Shu o‘zbekning yomon cho‘birida chopib sharmanda bo‘lasan“, — deyishdi.

Poygachilar yo‘l yurib, Boboxon tog‘iga hafta-o‘n kun deganda chuvlashib yetib borishdi. Qalmoqlar borib qarashsa, Qorajon otiga dam berib yotibdi, poyga qo‘yadigan yerga boribdi. Ana shunda Qorajon Alpomish tanidan chopmoqchi bo‘layotgani akasi Ko‘kaldoshga yoqmabdi.

Qalmoqlik polvonlar Boychiborni bir tomonga tortib, yiqitib, boylab tashladi. Qorajonni jon-holiga qo‘ymay bir tomonga boylashdi. Ular avvaliga Boychiborni so‘ymoqni niyat qildilar, keyin tuyoqlariga pichoqlar sanchib, gulmixlar urib tashlashdi. Bir hisobi o‘lar, o‘lmay qolsa, bizdan keyin borar, deb Boboxon tog‘ida ikkovini yolg‘iz tashlab ketishdi.

Qorajon o‘ziga kelib, atrofga nazar solganida poygachilarning ketganiga ancha vaqt bo‘lgan edi. Polvonmasmi, bir chirpinib arqonni uzib yubordi. Borib otning oyog‘ini yechdi. Bu ahvolda endi yetolmasam kerak, deb tushkunlikka tushdi. Shunda ot tilga kirib, na’ra tortdi:

— *Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,  
Boshing eson, davlatingni kam dema,  
Qoldim, deb, Qorajon, sira g‘am yema.*

Qorajon Boychiborning ustiga o‘tirib, egarning qoshidan ushladi. Boychibor suvliqni tishladi, ha deganda to‘riqdan o‘tdi, samandan o‘tdi, Ko‘kdo‘nanga yetdi. Qorajon hamma poygachilarni ortda qoldirib ketdi.

Alpomish otini tanimay, mening otim bilan Qorajon Boboxon tog‘ida alplarning qo‘lida o‘ldi, deb Barchinga ko‘z tashladi. Shunda Barchinoy ham bezovtalanib, durbinni qo‘liga olib, sinchiklab qarab, shunday dedi:

— *Qurri-e qur, hayt-a hayt, to‘ramning oti,  
Oq to‘shim — yayloving, sochim — shipirtqi!*

Boychibor poygani oldi. Tuyog‘idagi mixlar azobiga chidab, Barchinning baxmal o‘tovini yetti marta aylandi. Qorajon g‘olib chiqqan otining tizginini tortib to‘xtatdi, yakkamixga bog‘lab sovitdi, tulporning terlari qotdi.

Barchinoy otga yaqin keldi. Jonivorning azob tortayotganini bildi. Boychibor tuyog'iga qoqilgan mix azobidan Barchinoyning oyog'i ostiga o'zini tappa tashladi. Barchinoy ipak ro'moli bilan otning ko'zlarini artib, qattiq o'kinib, tuyog'iga qoqilgan gulumixlarni tishlari bilan bir-bir sug'ura boshladi.

O'n ming uyli Qo'ng'irotning odami bor tomoshani ko'rdi. Endi Alpomishning o'ziga navbat kelib, hamma polvonlar bilan yoy tortishib yutib chiqdi. Ayniqsa, tangapulni ming qadamdan urib, hammaning og'zini lang ochirib qo'ydi. Kurashganda polvonlarning zo'riman degan Ko'kaldoshni ham ko'tarib yerga urdi. Alpomish Barchinoyning barcha shartlarini bajarib, g'olib keldi.

## **ALPOMISH BILAN BARCHINOYNING TO'YI**

**A** na endi qalmoqlar elida katta to'y bo'ldi. Oshpazi kelib osh damladi. Chavandozi kelib uloq chopdi. Eli bir-birining ko'nglin topdi. Peshini keltirib mullasi so'radi. Guvohlari javob berdi. Barchinoyning baxti kuldi. Taqdiriga tan bergan Qalmoqshoh esa barcha amaldorlari birla to'yga qaramasdan jo'nab ketdi...

Alpomish bilan Barchinoy bir o'tovda qolib, tun-kun o'tkazdi. Chillaga kirib, o'tovning girdida o'ralishgan jinlarni ketkazdi. Qorajon barcha kuyovnavkarlari qatori siylandi, hurmat-izzat topib Alpomishning qatorida yurdi.

Necha davronlar o'tdi. Alpomishning ham bu yurtda joy tutganini bilgan elatdoshlari Qo'ng'irotdan kelib Boysariga maslahat qildi. Barchinni bu yerdan uzatib ketish kerak, yana Ko'kqamishga borib qo'naylik, bu musofirlik yurtidan

ketaylik deb, qavm-u qarindoshlari qayta-qayta maslahat qildi.

**Boysaridan boshqalarning Qo‘ng‘irotga qaytishi.** Shunday qilib, qirq kun maslahat qilishdi. Boysari qoladigan, qolgan o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot Barchinni olib ketadigan bo‘ldi. Alpomishga ham, Qorajonga ham sarpolar yopib, „elga ko‘rsatdi“ rasmini qilib, bir qo‘yni so‘yib, kun choshgoh bo‘lganda: „Barchinoy qizim, meni kechir“, — deb Boysari qolaverdi.

Boylari bosh bo‘lib, girdida ot choptirib, o‘ynab borayotganlari yosh bo‘lib, Boysari bilan bir paytlari kelganlar Qo‘ng‘irot eliga qushday uchib ketaverdilar.

Bir xil o‘g‘illari o‘lib, Qorajonidan tirik yetim qolib, bu holga chiday olmagan Surxayil kampir qo‘ng‘irotliklardan o‘ch olmoq niyatida Qalmoqshohning oldiga arz qilib bordi. Qorajon esa Alpomish bilan birga-birga ketayotgan edi. Qorajon lashkar ularni quvib kelayotganidan qattiq g‘azablanib, ortga qaytajagi, qo‘shinlar bilan urushajagini Alpomishga bildirdi. Alpomish ikkovi urush yarog‘ini g‘amlab, boylarning oldi-ortini yig‘ib jamlab: „Sizlar ketaveringlar“, — deb tayinlab, o‘zlari jang qilish niyatida ortga qaytishdi.

Ikkovi qarasa, Qalmoqshohning lashkarlari tumonat bo‘lib kelayotir. Alpomish Qorajon do‘stiga yuzlanib: „Sen ortga qaytib, eldan xabardor bo‘lib turgin“, — deb o‘zi jangga kirib ketdi. Yovni ko‘rib sermasa damiga uchiradigan qilichini qo‘liga olib, dushmani qirib ketdi. Bo‘ldi qiyomat! Bo‘ldi qirg‘in! Sonsiz qalmoq o‘ldi. „Bu o‘zbekni tiriklay olib ketamiz“, — deganlarning tili kalimaga yo keldi, yo kelmadi. Alpomish yovning tirigini gala-gala qilib kelgan tomoniga quvib yubordi.



Alpomish Qorajon do'sti bilan yana yo'l yurib, qir-qir yilqilarga, dara-dara qo'y haydagan boylariga yetishdi. „Qaydasan, Boysun elim“, — deb Ko'kqamishga kelib, ko'chdi elning oldi bir tog'dan o'tib, bir chopag'onini Alpomishning kelganini Boybo'ri otasiga bildirsin deb, xabarchi qilib jo'natishdi.

Qo'ng'iro't elga xabar bo'ldi. Qiy-chuvlar orqasidan to'ylar boshlanib ketdi. Boybo'ring armoni bitdi. Yosh-u qari birin-ketin qulluq bo'lsinga keldi. Boybo'ri ota bo'lib o'tirib, „qulluq bo'lsin“ oldi. Shunday qilib, to'y o'tib, Qaldirg'och Barchinoy chechasidan: „Otangiz qayerda qoldi?“ — deb so'radi. „Qalmoq yurtida qoldi“, — deb javob berdi, otasini sog'ina boshlagan Barchinoy.

**Alamzada qalmoqlar.** Alpomish bilan Barchinoy tinch-omon yashayverib, yurtini obod qilishdi. Qo'ng'iro'tliklar Qorajonni ham o'zlariga yaqin bilishdi. Kunlarning birida bir paytlar Alpomish va Qorajonga qarshi jangda yengilib qochib ketgan qalmoqlar ayyor kampir Surxayil bilan til biriktirishib, Qalmoqshohning oldiga borishdi. „Biz shunday alamzada bo'lib yuraveramizmi?“ — deyishdi. Shunda Qalmoqshoh: „Bu ishni boshlagan Boysari edi, Boysari bo'lmaganda bu gaplar bo'lmasdi, ana shu boyni mening oldimga sudrab kelinglar“, — dedi. Boysarini oldiniga o'ldirmoqchi bo'lishdi, bo'yniga ko'p gunohlar qo'yishdi. Qalmoqshoh: „Kelinglar, shu ham yashasin, oshini oshasin, butun mol-holini mening davlatimga o'tkazib, o'zini o'z mollariga dahmardalarning kattasi qilib qo'yinglar, men uni jonini saqladim“, — dedi.

Surxayil maston: „Mening Boysari bilan ishim yo‘q, men Alpomishni o‘ldirsam, o‘g‘illarimning xuni to‘lanadi“, — dedi. Qalmoqshoh Surxayildan bu gapni eshitgandan so‘ng: „Men nima desang bersam, Qo‘ng‘irotda yaqin joydan bir manzil qursang, ertami-kech Qora-joning keladi, keyin uyog‘i bir gap bo‘lar“, — dedi.

Surxayil kampir Murodtepa yaqinidan, Chilbir cho‘lidan bir orasta joy qurdirdi, joyiga egalik qilib, uch-to‘rt kuchugini uy aylantirib hurdirdi.

Ana endi bu joylarda Boysari o‘z moliga o‘zi yetimlik qilib, bechora bo‘lib, gangib yuraverdi. „Boysarining bu holini bilgan o‘zbek xabar olar“, — deb Surxayil kampir ham poyloqchilik qilib davrini suraverdi.

**Barchinoyga otasidan xat.** Bir kun bir karvonboshi Barchinoyga xat tutqazdi. Xatda: „Mening ahvolim tang, menda bordir na makon, na vatan, ba‘zan jigarim erib, yurtimni ko‘rgim keladi, qalmoqlarning qo‘lida mustar bo‘ldim, meni ham so‘rab kelguvchilar bormi?“ — deb arz etilgan edi. Barchinoyning ko‘ngli buzilib, Alpomishini zo‘r bilib, otasi Boysarining xatidan uni xabardor etdi.

*Yig‘lama, gul yuzli, bundan borarman,  
Xafa bo‘lma, seni shodmon qilarman.  
Ot o‘ynatib qalmoq elda bo‘larman,  
Yig‘lama, otangni olib kelarman.*

Bu so‘zni Alpomish Barchinoyga aytib, ko‘ngliga tasalli berib, yo‘lga otlangani otasidan ruxsat so‘radi. Boybo‘ri: „Ko‘zimning tirikligida javob bermayman“, — degandan so‘ng Barchinoy bu javobdan ogoh bo‘lib: „Bir erkakning

ishini o‘zim qilayin, javob bersang otamning oldiga o‘zim borayin“, — deb Alpomishning oldidan o‘tib tayyorgarligini ko‘raverdi.

Bu orada Alpomish o‘zi bilan qirq ikki yigit bo‘lib Qalmoq eliga ot solib ketdi.

Qalmoq eliga yaqinlashganida, yo‘lda bir badbashara kampirga duch kelishdi. Kampirning ko‘z yoshi yerni o‘yguday, betini tirnagan, sochini yoygan, kim biladi yo shunday tug‘ilgan, yo keyin bo‘lgan. Kampir zorlanardi: „Men Qalmoqshohdan zadaman, ko‘rayapsiz, cho‘llarda sargardon bo‘lgan bandaman...“ Alpomish otining jilovini tortib to‘xtatdi, kampirning gaplariga biroz quloq tutdi.

Alpomish: „Shu Qalmoqshohga ishim bor, mening ham bu yerlarda bir g‘arib kishim bor“, — dedi. Surxayil kampir ko‘p dardmand bo‘lib: „Xo‘p charchabsiz, bizing manzilga bir qo‘nib o‘tsangiz, qizlarim xizmingizda bo‘lsa“, — deb Alpomishni yigitlari bilan mehmonga taklif etdi.

Alpomish sardorlari bilan maishatni quyuuq qilaverdi. Yozilgan dasturxonni to‘kin, qirqin qiz xizmatda poyi patak. Birdan darvoza ochilib: „Qalmoqshohning lashkarlari kelayotir“, — degan xabarni Surxayil kampir aytib qoldi.

Ko‘ring endi Alpomishni va jami qirq ikki zo‘rni. Qilichlarini yarqiratib, askarlarning ko‘zlariga ko‘rinmagan narsalarni ko‘rsatib, bari-barini momolatib, kelgan tomoniga qaratib quvib yubordi. Alpomish qo‘lini bir siltab: „Ana endi Qalmoqshohning yurtini ertaga bir ko‘ramiz-da, bugun enam bilan bir suhbat quraylik“, — deb barcha sardorni qaytarib kelib maishatni davom ettiraverdi.

Beklar izzat-hurmat bilan sharobni ichaverdi. Tun yarim bo'lganda qirq bir sardor mast bo'lib, o'zidan ketib, ag'anab qoldi. Alpomish ichimliklar tamom bo'lgunicha qaddini tik qilib o'tiraverdi. Ichimlik tugagan joyda Alpomish ham yiqildi.

Ayyor Surxayil kampir hammasining ustidan o't qo'yib yubordi. Shul manzilga kampirdan xabar olgani kelgan Qalmoqshoh ham o'z askarlari bilan bul beklarning tomoshasini ko'rayotir. Yigitlarning Alpomishdan boshqasi kuyib kul bo'ldi. Alpomish yonmay qoldi. Shunda Qalmoqshoh askarlariga buyurdi: „Qilichlaring bilan chopinglar, nayzalaringni sanchinglar, agar bu Alpomish tirik qolsa, Qalmoqshoh elini yer bilan bitta qilib tekislab ketadi“, dedi. Alpomish mast bo'lib yotibdi. Undan na qilich o'tadi, na nayza. Ilojini topolmagan Qalmoqshoh Surxayil kampirga qarab: „Endi o'zing biron narsa o'ylab topgin, o'ylab topolmasang, holingga voy bo'lgani shu“, — dedi. Surxayil kampir javob qaytarib: „Bo'lmasam, mening aytganimni qilib, xizmatkorlaringga buyurib, Murodtepaning balandligicha keladigan chuqur zindon qazdirib, shu zindonda chiritasan“, — dedi.

Qalmoqshoh hamma xizmatkoriga: „Shu ishga hissa qo'shmaganning moli talovda, boshi o'limda. Alpomishning mastligi tarqaguncha chuqurligi qirq quloch zindonni qazib bo'lasanlar“, — deb buyurdi. Hamma bu ishga bosh qo'shdi, zindondan chiqqan tuproqning balandligi bir tog'dan oshdi.

## ALPOMISHNING ZINDONGA TASHLANISHI

**Q** irq quloch zindon tayyor bo'ldi. Qalmoqshoh bilan Surxayil kampir boshchiligida hamma Alpomishning oldiga keldi. Ana, Qo'ng'irotning xoni uxlab yotibdi. Mastligi hali-beri tarqamaydi. Uni o'n-yigirma odam ko'tarib ko'rdi. Ko'targanning ko'pi belangi bo'ldi. Keyin Qalmoqshohning otlariga sudratib, torttirib ko'rishdi. Alpomishni joyidan qo'zg'atisholmadi.

Axiri, shuncha ayyorlikka kallasi yetib turganlar buniyam chorasini topib, Alpomishni Boychiborga sudratmoqchi bo'lishdi. Boychibor ne qilsa ham bir jonivor-da, quyrug'ini qilich kesgandan so'ng Alpomishni sudrab chohga tashlab, sakrab o'tdi. Boychiborni esa bandi qilib, Qalmoqshoh olib ketib, bor azobni ko'rsatdi, qimir-lamaydigan qilib cho'yan quyib, bo'yniga osib, oyog'iga bosib tashladi.

Hamma joyga Alpomish o'ldi degan xabar tarqatdi.

*Bu xabarni bir kun Barchin bilibdi,  
Qaldirg'ochga sirin aytib turibdi,  
Xotinlardan Barchin so'rab ko'ribdi,  
So'rasa o'lgani aniq bo'libdi.*

Alpomish o'lib ketdi deb, hamma aza ochdi. Hademay yil oshisin ham o'tkazdi.

Boybo'rining Bodom cho'risidan Ultontoz degan o'g'li bor edi. Alpomish o'lgandan so'ng, qullikda katta bo'lsa ham, Boybo'rining o'g'li-da deb, uni hurmat qila boshlashdi. Endi bor narsalarga Ultontoz ega bo'lib, bu beso'naqay odam birovni bosib-mosib ketmasin deb, Qorajonni ham chetlatib, Olatog' degan tog'dan joy berib qo'ydi. Qaldirg'ochoyimni esa Bobir ko'lida tuya boqtirib

qo‘ydi. Alpomishdan bir kuni Yodgor degan o‘g‘il tug‘ildi. Barchin: „Shu bolam otasining o‘rnini bosar“, — deb Yodgorini bag‘riga bosib yuraverdi.

**Oyog‘i singan g‘oz xabari.** Alpomish zindonda yotibdi. Kallasini ko‘tarib choh boshiga qarasa, bir g‘oz aylanib yuribdi. G‘oz Alpomishning oldiga o‘zini tashladi. Ko‘rsaki, g‘ozning bir oyog‘i singan. Alpomish: „O‘z elinda, Bobir ko‘linda shu g‘oz menga yo‘liqsa, butun yo‘liqar edi, hozir zindonda yotgan yarim odamman-da, bu g‘oz menga yarim yo‘liqdi“, — dedi.

Kunlar o‘tib, g‘oz tuzaldi. Alpomish bir noma bitib, g‘ozning patiga qistirib: „Faqat oqshom uchgin“, — deb uchirib yubordi. Ana endi boshqa yoqdan eshitsak. Shakaman degan tog‘da bir xalq yashardi. Bu yerning xalqi faqat qushlarning go‘shini yer edi. Alpomish tomonga uchib kelayotganida mergan bola oyog‘idan urib, g‘ozning yerga tushmaganini ko‘rib, hali-hamon bu ishini sharmanda bilib, g‘oz go‘shini yesam tuzalaman deb, yotib edi. G‘ozning orqaga qaytayotganini oldindan sezib, vaqt o‘tib ovozi eshitib: „Enajon, o‘q-yoyimni bersangiz“, — deb iltimos qildi. Ko‘ngli ko‘p gapni sezadigan dono enasi: „Bu Alpomishning yolg‘iz xat tashuvchisi, buni o‘ldirib bo‘lmaydi“, — deb javob qaytaradi. Lekin o‘g‘li qurollanib, tashqariga chiqib ketadi. Kampir esa yo‘lni kesib chiqib g‘ozni oldindan ogohlantiradi. G‘oz ajaldan qutulib qoladi.

Alpomishning xati Qaldirg‘ochoyimga yetdi. Qaldirg‘ochoyim borib Qorajondan iltimos qildi. Qorajon arqonni olib, yo‘lga chiqdi. Qalmoqshohning eliga yetgach, zindonning qaysi joyda ekanini bilmay sarson

bo'ldi. Bir ko'chaga kirsa, ikki bola bir yolg'iz bolaning oshig'ini tortib olayotir. Shunda yolg'iz bola: „Yolg'izlik shunday narsa, ham urding, ham oshig'imni tortib olding, necha yildan beri Qo'ng'irotning xoni ham zindonda yotibdi. Birovi bo'lsa, kelib xabar olardi-da“, — dedi. Bu gapni Qorajon eshitib, bolalardan yolg'iz bolaning oshig'ini olib berib, undan o'smoqchilab gap olgach, zindonni topib bordi.

**Qorajonning Alpomishni topib kelishi.** Alpomish zindonda yotib, chohning ustidan bir odamning o'tib, soya tashlab, ko'nglini bir chekkasini g'ashlab, yana bir soya solganini ko'rib: „Qalmoqshohning xabarchi josuslari Alpomish o'likmi, tirikmi deb tekshirib yuribdi shekilli, — deb, — hali yurtningni xarobaga aylantirib ketaman, o'g'il-qizingni birma-bir tutaman, josus bo'lsang shohingga aytib borgin“, — dedi.

Qorajonning ko'ngli buzilib, ko'kayiga so'zlari tizilib, chohdan zindonga cho'zilib qaradi. O'zini tanitib: „Do'stim mard-da, hali ham o'zini oldirmabdi, ko'ngli cho'kmabdi“, — deb beliga arqonni bog'lab tashlayverdi. „Sen meni tanimay, josus deb o'ylading, men seni zindondan qutqargani keldim“, — dedi.

Alpomish Qorajon do'stining arqon tashlayotganligini ko'rib: „Bekor kelibdi-da, buning meni tortib oladigan nima qudrati bor edi“, — deb ko'nglidan o'tkazib, arqonni mahkam ushlab ko'tarilaverdi. Zindonning boshiga yetay deb qolganida ko'ngliga bir gap keldi: „Erta bir kun elda ma'raka-majlis bo'lar, gapdan gap chiqib, men seni zindondan tortib olganman, bo'lmasa chirib ketar eding desa, kim degan odam bo'laman“, — deb o'yladi.

Alpomish oyoqlarini zindoning ikki tomoniga tirab, arqonni uzib, qirq quloch zindonga qaytib tushib ketdi. Qorajon ham: „Uzilib ketdi“, — deb arqonning uchini tugib, boshqatdan tashladi.

**Kayqubod va Yangibozor voqeasi.** Alpomish do‘stining mehribonchiligidan ko‘ngli erib: „Uzoq joydan izlab kelib, ko‘p sargardon bo‘lmagin, mening zindondan chiqishim hali-beri gumon, qalmoqlar bilishsa seni omon qo‘ymaydi, meni kim so‘rasa o‘lgan degin, do‘stim Qorajon“, — deb ota-onasiga, Qaldirg‘och singlisiga, Yodgor o‘g‘liga, Barchin yoriga, ana qo‘yingki, butun boriga salomini aytdi ... .

Qalmoqlarning Yangibozor degan bozori bo‘lardi. Qalmoqshohning qizi Tavkaoyim qirquin qizi bilan bozor aylanib yurib, bir serkaga xaridor bo‘ldi. Serkani sakson tangaga sotib olishdi. Kunlardan bir kuni o‘rdada yetaklab boqilgan serka ozib, jun tashlab, yolg‘izlanib qoldi. Shunda Tavkaoyim bir paytlar Boysarining qo‘yini boqqan Kayqubod cho‘ponning oldiga borib serkasini podasiga qo‘shishini aytdi. Kayqubod Tavkaoyimning naqd sakkiz pulini olib, serkani podaga qo‘shishga rozi bo‘ldi.

Kayqubodning boqib yurgan qo‘ylari o‘tlab yurib, Murodtepaga yetdi. Qo‘ylardan ayrilib o‘tlagan oq serka nuragan bo‘sh tuproqni bosib, zindonga enib ketdi. Kayqubod serkaning izidan kelib, sinchiklab zindonga qaradi.

Buni ko‘rgan Alpomish o‘zini Kayqubodga tanitdi: „Men sening yeznangman“, — deb aytdi. Kayqubod tanib: „Obbo, shuncha yildan beri zindondaligingni bilmabman-da“, — dedi. „Serka Tavkaoyimniki edi, serkasiga pulni turtib berib ketdi, shu qizning menga



ko'ngli borga o'xshaydi, endi unga nima deyman“, — deb Kayqubod Alpomishdan maslahat so'radi.

Alpomish: „Hozircha qalinning boshi — mana shu oq serka bo'ldi, zindondan chiqsam, Tavkaoyimni senga olib beray“, — dedi. Kayqubod ko'nglida ishonch tuyib, iyib ketib, ovqat bo'lsin deya yana uch-to'rtta qo'y tashlab ketdi. Oradan necha vaqtlar o'tdi, Kayqubodning qo'lida hech narsasi qolmadi. Shohning hamma molini zindonga tashlab bo'lgan edi.

Alpomish suyakdan ikki chanqovuz yasab qo'ygan edi. Shu chanqovuzlarni Yangibozorga olib borib sotib kelgin, deb Kayqubodga berdi. Kayqubod bu chanqovuzlarni bozorga soldi: „Ana endi ko'ring bu molni“, — deb chanqovuzlarning maqtovini keltirib sotaverdi. Tavkaoyimning qirquin qizi ham bu cholg'uga oshiq bo'lib: „Usta aka, bizlarga ham shu sozdan yasab bersangiz“, — deyishdi. Endi yasab beradigan moliga oldindan ikkitadan non olib, jami saksonta non qilib kelib, Alpomishga tashladi.

Alpomish yana bir chanqovuz yasab berib, bunisini Tavkaoyimning bog'iga borib chalasan, kim ko'rsa o'zim yasadim, deysan, quvsa qochasan, dedi. Kayqubod borib Alpomish aytganiday qildi. Kayqubodni quvib yetib, bir tolga bog'lagan Tavkaoyim: „Sen qachondan beri usta bo'lib qolding?“ — deb rosa savaladi. Kayqubod chiday olmay aytib qo'ydi: „Chanqovuzni zindonda Alpomish yasadi“, — dedi.

Tavkaoyim Kayqubod bilan zindonning boshiga borib: „Men senga hayotimni bag'ishlayman, agar zindondan chiqarsam kimim bo'lasan?“ — deb so'radi. Alpomish: „Qarindosh bo'lamiz“, — dedi. Tavkaoyim Kayqubodga

qarab: „Alpomishing o‘zingga nasib qilsin“, — deb orqasiga qaramay ketaverdi. Kayqubod chohdan zindonga mo‘ralab: „Yezna, ering bo‘laman desang bo‘lardi“, — dedi. „E, unday bo‘lsa qaytar parizodni“, — dedi Alpomish. Kayqubod Tavkaning ortidan yetib borib: „Qaytsang bo‘lardi, Alpomish ering bo‘laman deyapti“, — dedi. Tavka zindon boshiga qaytib, bu so‘zni o‘z qulog‘i bilan eshitdi.

Tavka o‘rdasidan zindonga lahim qazish uchun to‘rt mardikor yolladi. Mardikorlar hatto qazib chiqargan tuprog‘ini ham birovga bildirmadi. Shunday qilib, zindonga yo‘l o‘tkazishdi. Lekin bu qazilgan yo‘lga Alpomishning kallasi ham sig‘madi. Ana endi Tavkaoyim o‘zi lahimdan o‘tib, Alpomish bilan ko‘rishib turadigan bo‘ldi.

Surxayil kampirning yo‘li tushib, Tavkaoyimning o‘rdasiga kelib qolgan edi, qirquin qiz „to‘rga o‘ting“ qildi. Surxayil to‘rga o‘ta turib xaspo‘shga surilib ketib, lahimning ichiga dumalab tushdi. Lekin hushini yo‘qotmasdan o‘zini o‘nglab olib, yer osti yo‘lidan ichkariga qarab yurdi. Ancha yurib borgach, zindondan chiqib qoldi-yu, Tavka bilan Alpomishning uchrashib turganini ko‘rdi.

Surxayil kampir Alpomishni ko‘rib, ajdahoga yo‘liqqanday ortiga burilib qochdi, Alpomish Tavkaga: „Quv!“ — dedi. Tavka quvdi, mastonga yetganida, kampir ayyorlik qilib uning etagidan bir parcha lattani yirtib olib, yana qochdi.

Surxayil kampir podshohning huzuriga borib, ko‘nglida bor zorini yorib: „Sen podshohsan, bir chorasini top, qizing kelin-u, bu Alpomish degani kuyovbopga o‘xshaydi“, — dedi. Qalmoqshoh: „Chorani o‘zing top, uni sen: „Chirib ketadi“, — degan eding, tezroq o‘yla, bo‘lmasa bu kuning qimmatga tushadi“, — deb g‘azabini

sochdi. Surxayil kampir: „Besh yuz aravani qo‘shishni hukm qilasan, toki ular Zil tog‘ining toshlaridan to‘ldirib kelib Alpomishning ustidan to‘ksin, har yog‘idan tosh qisib, o‘z qoniga o‘zi bo‘ksin“, — dedi. Qalmoqshoh bunga rozi bo‘ldi.

Bu xabarni Tavkaoyimdan eshitgan Alpomish: „Ko‘p g‘am chekma, Boysunning xoni shunchalik o‘lib ketavermaydi, hali bu mayda-chuydalar mening zo‘rimni bilmaydi“, — deb qizni tinchlantirdi. So‘ng: „Mening Boychibor otimga ko‘zing tushmadimi, shu chibor otni otang kishanlab tashlagan bo‘lsa kerak. Agar otimdan darak bo‘lsa, irimiga tutatqilik isiriq beray, borib otimning oldida tutatsang, mening tirikligimni bilsa, yordamga keladi“, — dedi.

Tavkaoyim haqiqatan ham otasining qo‘lida tuyog‘iga temir parchin urilgan bir chibor otni ko‘rgan edi. Borib, Alpomish bergan nishonni bironta qalmoqqa bildirmasdan tutatdi. Haligi tutun otni kishnatdi. Nihoyatda qattiq kishnaganidan oyog‘iga urilgan temirlar parchin-parchin bo‘lib ketdi. Tavkaoyim o‘rdasiga borib, bilmaganday turaverdi. Ot zindonning boshiga borib, yetti marta aylandi. Chohning tubida egasini ko‘rdi.

Qarang, jonivor zindonning boshida bir-ikki ag‘anadi. Chiltonlar bir duo qilgan edi, quyrug‘i qirq quloch bo‘ldi, vaqt o‘tkazmay uni zindonga soldi. Alpomish Boychiborning quyrug‘ini beliga boylab, zindondan chiqdi.

## **ALPOMISHNING ZINDONDAN CHIQISHI**

**A**lpomish atrofga yana bir nazar qilsa, tosh ortgan aravalar kelayotibdi. Aravakashlar ajdahoni ko‘rganday ortiga qochishdi. Qarang, aravalar tashlab

ketilgan, u yer-bu yerda yotibdi. Aravakashlar Qalmoqshohning huzuriga yetishdi. Birpasda namoyishga karnay tortib, siyosatga to'plar otib, lashkarlar kelaverdi.

Chiltonlar yana bir duo qilgan edi, Alpomishning qo'lida yarog'i paydo bo'ldi. Jang boshlanib, necha bir dushman o'ldi. Boysunning xoni hech kimni ayamadi. Duch kelib qolgan Surxayil mastonni ham shartta kallasini oldi. Endi navbat Qalmoqshohga yetdi, o'ng-so'lidan qilich o'tdi. Qalmoqshoh gumdon bo'ldi.

**Kayqubod va Tavkaoyim to'yi.** Qalmoqshoh o'lgandan keyin, bek Alpomish ko'ksini kerib, bilagini tushirib, siyosat qilib, ot solib yurganida o'sha Kayqubod cho'ponni uchratib qoldi. „Sen zindonda paytimda shohning qizi Tavkaoyimni yoqtirib qolganingni aytuvding. Endi gap mundoq: cho'pon tayog'ingni yelkangga tashlaysan, qalmoq elining qolganini to'plab, menga bir-ikki do'qlab, siyosat qilasan, men esa ko'nglimga olmayman, sen murodingga yetsang bas“, — dedi.

Baland-pastda rasta-rasta odam bo'lib ketdi. Kayqubod elning oldida Alpomishga qarab: „Sen shuncha odamni qo'shib Qalmoqshohni ham o'ldirib yaxshi ish qilmading“, deb do'q urdi. Cho'ponning bu siyosatiga el uncha ishonmadi, uni pisand qilmadi. Shunda Alpomish el oldida Kayqubodga gap tashlab: „Sening zo'rligingni qalmoq eli biladi, shu sabab Tavkaoyimga kuyovlikka faqat sen loyiqsan“, — dedi.

Tavkaoyimni aytirib kelishdi. Kayqubod ham turibdi kuyovday bo'lib, kal boshini quyi solib. Tavkaoyim Alpomishga qarab, Kayqubodni ko'rsatib: „Men shu kalga tegamanmi, men seni degandim“, — dedi. Shunda Kayqubod boshiga doimo qoplab yuradigan jumurini olib tashladi. Kayqubod kal emas ekan.

Jamolini ko‘rgan Tavkaoyimning ko‘ngliga iliqlik kirib: „Aslida Alpomish Kayqubodga qaraganda ancha qo‘pol ekan“, — deb o‘yladi.

Boysarining bir paytlar qo‘yini boqqan, endi Tavkaoyimga uylanib, podshoh bo‘lgan Kayqubodning to‘yi davom etyapti. Davlatidan ayrilib, bechora bo‘lib qolgan Boysari ham odamlarga qo‘shilib, birga-birga to‘yga keldi. Alpomish Boysarini tanib, ko‘zini yoshlab, o‘zini bag‘riga tashlab ko‘rishdi. To‘y tugashi bilan Kayqubod Boysarining izzatini qilib, dildan suyib, bir xat qilib, bir paytlar tortib olingan barcha molini qaytarib berdi.

Kun peshin bo‘lgandi, Kayqubod yana erkalik qilib, elning oldida Alpomishni bir-ikki turtib, qo‘l-oyog‘ini tortib boylab: „Endi sening joying zindonda, nimagaligini o‘zing yaxshi bilasan“, — deb, zindonga tashlab, tag‘in bir maqtanib qo‘ydi. Elning ko‘nglida: „Alpomishdan Kayqubod zo‘r ekan“, — degan gap o‘tdi. Hamma tarqalib ketdi. Tun kechdi, sahar bo‘lib, xo‘rozlar qichqirib, tong otdi. Kayqubod shoshib zindonga borib, hech kimning ko‘ziga ko‘rsatmay Alpomishni chiqarib, uni yo‘lga kuzatish taraddudini ko‘rdi. Alpomish Kayqubodga tayinlab: „Boysari otadan ham xabar olib tur, yurtiga, teng-to‘shiga qaytsin, bir nasihat qilib ko‘r“, — dedi.

## **ALPOMISHNING YURTIGA QAYTISHI**

**A**lpomish Boychibori bilan necha kun yo‘l yurib, Boysun elatini ko‘rib, yuragi tez-tez urib, duch kelgan quldan: „Qo‘y-qo‘ralar kimniki?“ — deb so‘rab ketaverdi.

Alpomish bir to‘qaydan o‘tayotganda Boychibor qattiq kishnab yubordi. Uning tovushini barcha jonivorlar eshitdi. Boychiborning ortidan bir biya kishnab chopib ergashdi. Boychibor ham borar yo‘lidan adashdi. Biya yaqin kelib qoldi. Alpomish qarasaki, Boychiborning enasi Tarlon yulqinib kelyapti. Alpomish otdan tushib, ot boshidan yuganini olib, enabolaning topishganini ko‘rdi. Ko‘ziga yosh keldi: „Yo‘limni yaqin qilgan Boychibor, sen mendan oldin enang bilan topishding“, — deb turdi.

Alpomish: „Bu biyalarning egasi kim?“ — deb so‘radi. Bir qul: „Boysari daraksiz ketib, Alpomish zindonda yotib, o‘ldi degandan keyin Ultontoz xonlikni qo‘l ostiga olib, hamma qarindoshlarni har ishga solib, yurtga egalik qilib yotibdi, bu mol-holning hammasi shuniki. Meni esa Jilovdor qul deydi, mening otam Alpomishning qadrdoni Qultoy“, — dedi. Alpomish otini yo‘lga solib: „Ultontoz bek bo‘lgan bo‘lsa, o‘zlaringdan ko‘ringlar, Alpomish o‘lgan bo‘lsa, ajab bo‘pti“, — deb ketaverdi.

Alpomish tun-kun yo‘l yurib, Bobir ko‘liga bordi. Bobir ko‘lida yupun kiyinib: „Bu ketayotgan elchilardan bo‘lsa kerak“, — deb iymanib, o‘zini changalzor panasiga olib, tuya boqib yurgan Qaldirg‘och devqomat bu otliqni ko‘rdi. Alpomish ham o‘zini tanitmay: „Bu el qanday el bo‘ldi?“ — deb, yoyilib yurgan mol-holni ko‘zdan kechirib o‘tdi. Alpomish to‘g‘ridan to‘g‘ri keta-  
vergandan keyin, ortidan termilib qolgan Qaldirg‘och-  
oyim Boychiborni taniganday bo‘ldi. Bu elchi deganni Alpomish akasiga o‘xshatdi. Alpomish qayrilib: „Men akangmasman, akang kelib qolar, men akang bilan birga zindonda yotganman“, — dedi.

Qaldirg'ochoyim: „Sen akamni bilsang, tingla mening arzimni, Ultontoz to'y qilmoqchi. Barchinoyday sarvinozni olmoqchi, bir kelbating akamga o'xshaydi“, — deb ot ortidan ergashaverdi. Alpomish ortiga qayrilib: „Yo'q, men akang emas, akangning do'sti bo'laman, hozir esa Qalmoq eldan kelaman“, — dedi-da, yana Qo'ng'irot elni oralab ketdi.

Bir joyga borsa, ko'p qo'ylarning chetida bir chol yig'lab o'tiribdi. Alpomish bu chol bir paytlar Boychiborni tutib bergan Qultoy ekanini darrov tanidi. Yaqin kelib: „Nimaga yig'layapsiz, bobo“, — deb so'radi. Qultoy: „Mening bir Alpomishim bor edi, bilganlar Qultoyning quli der edi, bilmaganlar o'g'li der edi. Shu o'g'lim Kashalga ketib qaytmadi, mol-u holi qullarga qolib ketdi“, — dedi. Alpomish aytdi: „Men kimga o'xshayman?“ „Sen go'rga o'xshaysan. Men uni ko'rsam darrov tanirdim“, — dedi Qultoy. Alpomish so'radi: „O'g'lingizning nima belgisi bor edi?“

Qultoy: „Alpomishning o'ng egnida Shohimardon pirning besh panjasining izi, chap egnida o'zimning besh panjamning belgisi bor edi“, — dedi. Alpomish egnilarini ko'rsatdi. Qultoy ko'z o'ngida ko'rib turgani Alpomish ekaniga ishondi.

Alpomish Qultoyni topgandan keyin: „Elda nima gaplar bor, bobo?“ — deb so'radi. „Ey, sen ketib bu yurtga qullar egalik qilayotir, hatto sening Barchin yoringni ham Ulton olayotir, bobong ana shunday qora kunlarni ko'rayotir“, — deb Qultoy Alpomishning savollariga javob berayotir.

## ALPOMISH VA QULTOY KELISHUVI

**Sh** unda Alpomish ichidagi jahlini sirtiga chiqarmay: „Bobo, shu to‘yga boradigan bo‘lsangiz, yaxshiyomonni biladigan bo‘lsangiz, men siz bo‘lib, siz men bo‘lib birga-birga borsak“. Qultoy bu taklifga rozi bo‘lib: „Kel, bolam, aytganing bo‘la qolsin, borsam borib qullarning to‘yida bir ko‘pkari chopib kelay“, — dedi.

Alpomish soqol-mo‘ylovli, tayog‘ini sudragan jaylovli qulday bo‘lib, o‘z yorining to‘yiga ketayotir. Sirtidan qaragan odam adashmay Qultoy deydi. Bir duch kelgan kelinchak undan: „Qultoy bobo, sizga uchta echki qo‘shgan edim“, — deb echkilarini so‘rayotir. U esa: „Echkilaring egiz-pegiz tug‘ib, uch echking yuz o‘n to‘rtta bo‘ldi“, deb yo‘l-yo‘lakay kelinchakning uyiga mehmon bo‘lib, bor-budini yeb-tozalab borayotir.

Haqiqiy Qultoy ham to‘yga borib Chibor bilan ko‘pkari chopayotir. Barchinga katta bir baxmal o‘tov tikilgan, uloqchilar ulog‘ini ana shu o‘tovning soyasiga, Barchinga ko‘rsatganday tashlab ketayotir. Qultoy ham qullarga qarata: „Qani, uloqning yangisini olib kel“, — deb to‘yga aralashib yuribdi. Qultoy uloqni Chibor ot bilan yana bir tashlab ketganida Barchin Alpomishning otini tanib qoldi. Atrofida odamlar: „Ey, bu odam qaysi eldan kelgan, ko‘pkarini yaxshi chopar ekan“, — deb chuvlashib yotishibdi.

Barchinning oromi buzilib, tomirida qon yozilib, Yodgor o‘g‘liga qarab shunday dedi:

— *Suvda bo‘lar suluv o‘tning suyrug‘i  
Biz bilan bo‘larmi haqning buyrug‘i*



*Choʻltanglab koʻrindi Chibor quyrugʻi*  
*Toʻyxonaga, bolam, otang kelganday...*

Yodgor bu gapni onasidan eshitib: „Agar otam kelgani rost boʻlsa, bu qullardan bir oʻch olayin“, — deb oʻtovdan otilib chiqib ketdi. Shunda borib, qoʻliga tayoq olib, koʻpkariga tashlayotgan serkalarini uyoqdan bu yoqqa quva berdi. Alpomish Qultoy suratli boʻlib Yodgorning oldidan chiqib qoldi, soʻz aytdi, nazar soldi: „Bolam, yurishing, shiddating Rustam alpdan ziyoda, oʻzi kimning oʻgʻli boʻlasan?“ — deb soʻradi. Yodgor: „Otam Kashalga ketgan, qaytib kelmadi, men Alpomishning oʻgʻli boʻlaman“, — dedi.

Yodgor: „Men bu qullarga bormayman, enamni ham bermayman“, — deb „chol“ning belbogʻiga osilib turgan edi, koʻpkari chopayotganlardan ikkitasi buni koʻrib, siyosat qilib, Yodgorni siltab-siltab ushlashdi. Qultoy qiyofasidagi Alpomish jahli chiqqanini bildirmay: „Yetim boʻlsa uraverasizlarmi?“, — dedi. Alpligiga borib birovining bilagini bir qisib bezovta qildi. Yana tanib qolishmasin deb, qoʻyib yubordi.

Yodgor bu chol Qultoy emasligini sezganday boʻldi. „Bobo, mening otamga oʻxshaysiz, oʻzingizni tanitmay turganga oʻxshaysiz“, — dedi. Alpomish Yodgorga qarab, koʻzlariga yosh olib: „Bolam, bobongni ota demagin“, — deb ishontirdi. Yodgor ham Qultoy bobomning shunday kuchi bor ekan, bilmas ekanman-da, deb hayron boʻldi.

**Qultoy qiyofali Alpomish.** Xoʻp, hozircha bu cholni Qultoy qiyofasidagi Alpomish deb turaylik. U Yod-

gorning bunday dadilligini bilib: „Yodgor, sen bilan men ikki yorti bir butun bo‘lib birlashib, shu to‘yni bir buzib ko‘raylik. Ikkalamiz birga borsak, Qultoy bilan Yodgor kelishib olibdi demasinlar, sen ko‘pkari tomondan bor“, — dedi.

Qultoy qiyofasidagi Alpomish darvozadan kirsam, o‘zining tuqqan onasi to‘yga so‘yilgan qo‘ylarning kallasini tozalab o‘tiribdi. O‘zini tanitmay: „Kuntug‘mish yanga, omonmisiz“, — dedi. Enasi esa: „Sening kelbating ham, ovozing ham Qultoyga emas, bolamga o‘xshaydi“, — deb biroz bo‘zladi. Bu so‘zni eshitgan „chol“: „Yenga, Alpomish kelsa Alpomish bo‘lib kelardi, Qultoy bo‘lib kelmaydi-ku“, — dedi. Shunda Kuntug‘mish: „Sen dala-dashtda yurasan, Qultoy, unibuni ko‘rasan, Alpomish bolamdan xabar bormi?“ — deb so‘radi. „Endi men ham ko‘zdan qolganman, ko‘p narsadan xabar topmay qolaman“, — dedi Qultoy qiyofasidagi Alpomish. Enasi yana umid qilib, shu Qultoy to‘g‘ri to‘yga aralashar, Barchinoyini ham ko‘rar, Ultonga tegmasin deb aytsam, gapimni yetkazib qo‘yar, deb bir-ikki gapni aytib qoldi. Qultoy qiyofasidagi Alpomish ham, „Ey, yanga, buni qotiramiz“, — deb to‘y oralab ketdi.

To‘y oralab kutib yurdi: birovning qo‘lida kosov, birovning qo‘lida kosa. Boybo‘ri otasi esa katta meshni yelkasiga qo‘ymoqchi bo‘lib qiynalib, Ultontozning barcha qullari qatori suv tashib xizmat qilayotir. Ulton uni uzoqdan turib jerkiyotir. Qultoy qiyofasidagi Alpomish Ultonga qarab: „Otasini urgan bola oq bo‘ladi,



yaxshi ish qilmayapsan“, — dedi. So‘ng Boybo‘rining oldiga borib: „Bir paytlar sizning ham tuzingizni totib yurganman, meshni men olib boray“, — deb suvni ko‘tarib ketdi. Boybo‘ri yaqin o‘rtada bunday e‘tibor ko‘rmagan, o‘zida yo‘q xursand edi. Qultoy qiyofasidagi Alpomish Boybo‘riga yordam berib, Ultonning oldiga qaytdi. „To‘y qulluq bo‘lsin“, — dedi.

**Ultontoz.** Ultontoz ham „qulluq bo‘lsin“ olib: „Bobo, borib qozonlarning birida o‘t yoqing, charchab kelgansiz, bir qozondan oshning etini, bir qozondan oshning betini, bir qozondan oshning savobini yeb, qorningizni to‘yg‘azing“, — dedi. „Chol“ Ulton aytganidan ham ziyodroq qildi, qozondagi ovqatlarni xommi, xatalami bir boshidan urib boraverdi.

Boybo‘rining bir paytlar ozod qilgan Farmonqul degan quli bor edi. Ana shu Farmonqul to‘yda bakovul edi. U to‘y oralab yurgan bu cholga shunday huquq berilganidan jahli chiqdi. Qarasa, to‘y oralab Yodgor kelayotir, u o‘zicha botir, biron qulga quloq solmaydi, yomon qaraganni bilmaydi. Shunda Farmonqul bakovul kapgir bilan Yodgorning og‘zi-burniga sermab yubordi. Yodgorning og‘zi-burni qon bo‘ldi. Qultoy qiyofali Alpomish turib: „Yodgorga nega azob berasan, uning otasi bir mahallar seni ozod qilgandi“, — dedi. Qultoy qiyofasidagi Alpomish Yodgorga bir ilik berdi. Yodgor ilikning bir yog‘idan tishlab, onasining oldiga ketdi.

Bakovulning xotini erini tergab: „Alpomishning o‘g‘lini bekorga urding, anavi chol Qultoymas, Alpomishga o‘xshaydi, u axir suv to‘ldirilgan meshni ko‘tardi, buni Qultoy qanday udda etardi“, — dedi. Bakovul ham, o‘z navbatida, Ultontozdan qo‘rqdi:

„Bu gapingni bilsa, boshingni oladi“, — deb xotinini koyidi. Ana endi, Yodgor onasining oldiga ilik tishlab hech narsa ko‘rmaganday kulib kirib keldi. Onasi ham bir narsani sezdi: „Nega kulyapsan, o‘g‘lim Yodgorjon?“ — deganida: „Menga Qultoy bobom ilik berdi, shu sababdan xursand bo‘lib kulyapman“, — dedi Yodgor. Shunda Barchin: „Yo‘q, bolam, u Qultoy bobongmasdir, ilik bergan otangdir. Qultoy bobong o‘z kunini bazo‘r ko‘radi“, — dedi.

Bir tomonda qullarning yoyandozlik o‘yini boshlanib ketdi. Necha qullar yoy tortib yotdi. Endi bu to‘yga oralagan Qultoy qiyofasidagi Alpomish ham bir necha yoyni sindirib, o‘q-yoylarni tindirib, ko‘rgan ko‘zni „voh-voh“latdi. Ko‘plar gumon qiladi, „bobo bunday yoyandozlikni qanday o‘rgandi ekan“, — deyishdi. Ko‘plar shuni so‘raganida, Qultoy qiyofali chol: „Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinjdand qilingan yoyni Arpali ko‘lida Alpomish ikkovimiz tortishar edik. Alpomishning o‘qidan mening o‘qim o‘tar edi“, — dedi.

Shunda hamma qullar o‘sha o‘n to‘rt botmonli yoy qayerda ekan, bilganimizda shu Qultoyga tortqizib ko‘rardik, deyishdi. Yoyning qayerdaligini Qultoy qiyofasidagi Alpomishning o‘zi aytganidan keyin Ultontoz hammaga buyurib: „Arpali ko‘lida ajriq bosib yotgan yoyni olib kelinglar“, — dedi. Shunda Barchin ketayotgan odamlarning yoyni olib kelolmasligini sezib, Yodgor o‘g‘lining shiddatini zo‘r bilib, uni ham shu odamlarga qo‘shib jo‘natdi. Ultontoz rozi bo‘lib Yodgorning boshiga achchiq-achchiq qamchi tortdi. Yodgor otasining jasoratini eslab, „pirim“ deb

na'ra tortib, to'y tugamay o'n to'rt botmon yoyni to'yxonaga olib kelib tashladi.

Qultoy qiyofasidagi Alpomish parli yoyni qo'liga oldi, olib ko'pning ko'ngliga shubha soldi. Yoyni tortib qo'yib yuborgan edi, bir chinorning katta shoxini qarsillatib qo'porib o'tib ketdi. Bu ishni bajarishda Qultoyda nima jon bor deysiz. Alpomishning kelgani tayin bo'lsa kerak, degan hadik elning ko'nglida oralab yurdi.

**O'lan aytishuv.** Ultonning onasi Bodom hamma qizni to'yda o'lan aytishga chorlab yuribdi. Bu kampir Alpomish davrida cho'ri edi, qo'y boqib yurib bir joyda uxlab qolganida, tilini olahakka cho'qib, soqov bo'lib qolgan edi. „O'g'limday elning to'yasi, habaychi biyning enasi“, — deb to'y xabarini o'zi aytib yuribdi.

Baland-pastdan, dala-dashtdan hamma yig'ildi. Yig'ilganlarning orasida Qaldirg'ochoyim ham bor edi. Uning ko'ngli zor, atrofdagi hashamlarning hammasi ko'ziga dor ko'rinar edi. Qorong'ida o'lan aytmaylik deb, Qaldirg'ochoyimning ikki qo'liga ikki chiroq, boshiga yana bir chiroqni yoqib qo'yishdi. O'lan boshlash oldidan Yodgor yugurib ammasining oldiga kelib qoldi. Shunda ammasining ahvolini ko'rib achindi va Barchin enasiga qarab shunday dedi:

— *O'lib ketgan bek otamning arvohin  
Jonim enam, hurmat qilsang bo'lmaymi?  
Chirog'in ko'klarga ursang bo'lmaymi,  
Biring o'lsang, baring o'lsang bo'lmaymi?!*

Bir vaqtlar Ultonning onasi — Bodom kirib keldi. Kirib: „Qizlay, o'lan boshlanlay“, — dedi. Shu paytda

tashqaridan Qultoy qiyofali Alpomish kirib kelib: „Yanga, Ulton-bekning to‘yida sen bilan uch-to‘rt og‘iz o‘lan aytishay deb kirdim“, — dedi. „O‘lan aytsang boyib tenging bilan aytish“, — dedi Bodom soqov. Ikkovi bir-birovi bilan hazilkash ohangda biroz o‘lan aytishdi. Bodom soqov:


*Andiyama, Qultoyqul, mandiyama, yoy-yoy,  
Sakkich degan ko‘ppakday sandiyama, yoy-yoy.  
Oq changalning tubiga chiyib keldim, yoy-yoy,  
Ichib olsang, chuvchuning qondiyama, yoy-yoy?!*

Qultoy qiyofasidagi Alpomish:

*Andiringdan, yangajon, mandiringdan, yor-yor,  
Kulcha yopib non yegan tandiringdan, yor-yor.  
Duppa-durust odamni ko‘ppak deysan, yor-yor,  
Ko‘ppak itlar tortsin-da chandiringdan, yor-yor...*

Buni ko‘rib turganlarning hammasi: „Qultoy qurg‘ur o‘lan aytishga usta ekan, bu ahvolda Ultonbekning onasini beobro‘ qilmasin, Ultonning o‘ziga xabar bersak, shu Barchin bilan o‘lan aytishsa qanday bo‘lar-kin“, — deb Ultondan ruxsat olib kelishdi. Ulton: „Aytishaversin“, — dedi.

TO‘LIQ QAYTGANIDAN SO‘NG  
TO‘LIQ

ultoy qiyofasidagi Alpomish bilan Barchinoy uzoq o‘lan aytishdi. Barchin cholga qarab: „Siz o‘landa yutdingiz“, — dedi. O‘lan oxirlab, tonglar otib qolganda, Boychiborni minib, haqiqiy Qultoy kirib keldi. Shunda Qultoy qiyofasidagi Alpomish o‘rnidan turib: „Bobo, elga ovoza qiling, Alpomish keldi deb ayting“, — dedi.

Qultoy Boychiborning ustidan turib: „Alpomish keldi desam, bu qullar juda to‘yib ketgan, meni o‘rtaga olib urib, o‘ldirib qo‘ymaydimi?“, — dedi. „O‘ldirmaydi, mening o‘zim xabardor bo‘lib turaman“, — dedi Alpomish. Alpomish ustidagi yasama kiyimlarini yechib tashlab, gulday ochilib, yulduzday sochilib, bilgan-bilmaganlar bilan ko‘rishga ketdi.

Qultoy yo‘lida davom etib, el-u yurtga: „Alpomish keldi“, — dedi. El-u yurt yig‘ildi. Alpomishning Boybo‘ri otasi, cho‘lda tuya boqib yurgan emikdoshi Qaldirg‘och-oyim, pahlavonning o‘g‘li Yodgor, hamma-hamma Alpomish bilan quchoqlashib ko‘rishyapti. Kun allamahal bo‘lganida qarasaki, Alpomishning do‘sti Qorajondan darak yo‘q. Alpomish yig‘ilganlardan: „To‘qson alpni bir yoqli qilgan mening Qorajon do‘stim qani?“ — deb so‘radi. Shunda yig‘ilganlar Ultontoz Qorajonni biron kimsaga ko‘rinma, deb, chetlatib Olatog‘dan joy berib, ko‘chirib yuborganini aytishdi. Alpomish tezda to‘rt-besh kishini tayinlab, Qorajonga deb ot-u sarpoy berib, do‘stimni olib kelinglar, deb jo‘natdi.

Qorajon bu gapni eshitib, shoshib-pishib, qadrdon do‘stining oldiga keldi. Qorajon bilan Alpomish quchoqlashib ko‘rishdilar. Katta to‘y boshlandi. Ular bu to‘yga bosh-qosh bo‘lishdi. To‘yda ko‘pkari bo‘ldi. Bodom soqovni ana shu ko‘pkariga tashlashdi. Alpomish Ultontozni qirq kun savalatib, qirq birinchi kuni boshini tanidan uzib tashladi.

Erta tongda chopar kelib, Alpomishni ko‘rib, Barchinni so‘rab: „Biz Ko‘kqamishdan kelyapmiz, Qalmoqdan Boysari qaytgan, Barchin qizini bir ko‘rish niyatida“,



## DOSTONDA UCHRAYDIGAN NOTANISH SO‘ZLAR LUG‘ATI:

*Birinj (birinch)* — mis va qo‘rg‘oshin aralashmasi, bronza.

*Qo‘ng‘irot* — o‘g‘uz urug‘laridan birining nomi va shu urug‘ga mansub bo‘lgan kishilar. Qo‘ng‘irot eli ham deyiladi.

*Qalmoqlar* — turkiy tillarning birida so‘zlashuvchi xalq.

*Kashal* — uzoq o‘lka.

*Qo‘riq* — yilqi ushlaydigan arqon, chilvir yoki qayish. Kamand ham deyiladi.

*Qirq chilton* — talqin etilishicha, go‘yo g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan, ko‘rinmaydigan afsonaviy qirq ruh.

*Dahmarda* — cho‘pon, podachi.

*Ko‘kay* — dil, ko‘ngil.

*Yezna* — pochcha.

*Shirboz (shirvoz, tirboz)* — sut emib o‘sayotgan qo‘y-echkining bolasi, qo‘zi.

*Asqar tog‘i* — Tangri tog‘, ya‘ni Tyanshan tog‘ tizmasiga qaraydi. Barcha turk qavmining makoni ana shu Tangri tog‘ning ikki tarafida yashagan.